XORAZM VILOYATI HAZORASP TUMANI HOKIMINING QARORI

Hazorasp tumani, E.Gayazov ko‘chasi, 32-uy

2024 - yil 31 - may 329-12-174-Q/24 Hazorasp tuman hokimligi

Viloyat hokimining 2024-yil 3-maydagi “Xorazm viloyatida maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish uchun majburiy to‘lov tariflari miqdorini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 185-12-0-Q/24-sonli qarori ijrosi haqida.

“Chiqindilar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 11-mddasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-sentabrdagi “Maishiy va qurilish chiqindilari bilan bog‘liq ishlarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4845-sonli, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-fevralda “Chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 95-sonli qarorlariga hamda bu yuzasidan viloyat hokimining 2024-yil 3-maydagi “Xorazm viloyatida maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish uchun majburiy to‘lov tariflari miqdorini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 185-12-0-Q/24-sonli qaroriga asosan hududlardan maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish xizmatlarini takomillashtirish, hududlarning ekologik va sanitariya holatini yanada yaxshilash maqsadida

Qaror qilaman:

1. Viloyat hokimining 2024-yil 3-maydagi “Xorazm viloyatida maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish uchun majburiy to‘lov tariflari miqdorini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 185-12-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Viloyat hokimining ushbu qarori bilan:

Xorazm viloyati xududlarida maishiy chqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish uchun majburiy to‘lov tariflarining miqdori ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Axborot va ommoviy kommunikatsiyalar agentligi viloyat boshqarmasi boshlig‘i D.Bekchanova, Xorazm viloyat teleradio kompaniyasi direktori O‘.Matqurbanov hamda “Xorazm haqiqati” va “Хорезмская правда” gazetalari birlashgan tahririyati bosh muharriri S.Raximberganovalarga ushbu qarorni rasman e’lon qilish tavsiya etilganligi;

Viloyat hokimining 2019-yil 16-martda “Viloyat hududidagi chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish xizmatlari uchun yangi tariflarni belgilash to‘g‘risida”gi 146k-sonli hamda 2019-yil 18-aprelda “Urganch shahri hududidagi qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bilan bog‘liq bo‘lgan xizmatlar uchun to‘lov ta’riflarini belgilash to‘g‘risida”gi 185k-sonli qarorlari o‘z kuchini yo‘qotgan deb husoblanganli ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman hokimining 2019-yil 18-martdagi “Viloyat hududidagi chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish xizmatlari uchun yangi tariflarni belgilash to‘g‘risida”gi 2080q-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

4. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchka kiradi.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilishni tuman hokimning o'rinbosari F.Sobirov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **Z.Abdirimov**

Hazorasp tuman hokimining
2024-yil 31-maydagi
329-12-174-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Hazorasp tumani maishiy chiqindilar, agrotexnik ishlov berishdan hosil bo‘ladigan chiqindilar (daraxt va buta shox-shabbalari, barglari) hamda smyot maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish uchun majburiy to‘lov tariflari

Xizmat ko‘rsatiladigan shaxslar	Tip, marka, artikul yoki model raqami	O‘lchov birligi	Tarif miqdori (so‘m)
Hazorasp tumanida			
Aholi uchun (1 fuqarodan 1 oyda)	Maishiy chiqindilar	Bir oyda bir fuqaro uchun	4 592
Yuridik tashkilotlari uchun (QQS bilan)	Maishiy chiqindilar	m3	64 400
Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan o‘z texnikalari yordamida markaziy chiqindi saqlash obyektiga qattiq maishiy chiqindilarni olib borib, joylashtirish	Maishiy chiqindilar	m3	16 800